

2-hujjat

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi: № BD-60310100-1.15
2024-yil "26" iyun

“YASHIL” IQTISODIYOT

FANINING

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	300 000	– Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi:	310 000	– Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60310100	– Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Termiz - 2024

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
GREECO6	2024-2025	3	6
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	o'zbek	6	
1.	Fanning nomi	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	“Yashil” iqtisodiyot	90	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – ushbu o'quv dasturi fanning maqsadlarini tavsiflaydi. Bu fan talabalarga iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, yashil iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan.</p> <p>Maqsadlar talabalarga quyidagilarni o'rganish imkonini beradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> yashil iqtisodiyot terminlari, tushunchalar va nazariyalarni bilish va tushunish; asosiy iqtisodiy raqamlardan foydalanish va iqtisodiy ma'lumotlarni sharhlash; yashil iqtisodiyotga o'tish zaruriyatini tushunish; iqtisodiy g'oyalarni yozma ravishda mantiqiy va aniq ifoda etish; iqtisodiy tushunchalarni mavjud iqtisodiy tadqiqotlarda qo'llash. <p>Iqlim o'zgarishining oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish uchun biz iqtisodiyotimizni qayta ko'rib chiqishimiz kerak. Aholi soni ko'payishi va iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi tabiiy resurslarga va energiyaga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Buning natijasida atrof-muhit ifloslanishi, tabiiy resurslar taqchilligi va global isish kabi muammolar yuzaga kelib chiqmoqda. Aholi va iqtisodiyotning ehtiyojini qondirish va barqaror rivojlanishga erishish uchun tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, bir so'z bilan aytganda «yashil» iqtisodiyotni rivojlantirish talab etiladi.</p> <p>Bu fan yashil iqtisodiyot konsepsiyasining tarixiy paydo bo'lishini, uning amalda qanday shakllanishini tushunish, bu jarayonda ishtirok etuvchi institutlar - hukumatlar, nodavlat tashkilotlar va korporatsiyalarning qanday rol o'ynashini o'rganadi.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarni yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari va zamonaviy uslublariga ega bo'lishlari bilan taminlash, tabiatni asrash, tiklash, muhofaza qilish, mamlakat aholisi hamda iqtisodiyotning ekologik havfsizligini taminlash, atrof-muhit bilan bogliq tadbirlarni tashkil etish va boshqaruv tizimlarini o'rganish, tabiatni muhofaza qilishda xalqaro hamkorlik sohasidagi bilimlarni berish atrof-muhit havfsizligini tashkil qilishning murakkab muammolarini yechishning nazariy asoslari va zamonaviy uslublari sohasida bilimlarni berishdir.</p>		

<p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. “Yashil” iqtisodiyot faniga kirish “Yashil” iqtisodiyot fanining predmeti va vazifalari. Barqaror rivojlanishni ta'minlashda “yashil” iqtisodiyotning o'rni. “Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari. “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlari. “Yashil” iqtisodiyot kursining metodlari.</p> <p>2-mavzu. “Yashil” iqtisodiyotga o'tish Resurslarning cheklanganligi va “yashil” iqtisodiyotga o'tish zaruriyati. “Yashil” iqtisodiyotga o'tish tamoyillari. “Yashil” iqtisodiyotga o'tish siyosatining dastaklari. “Yashil” iqtisodiyot uchun inson kapitalini rivojlantirish.</p> <p>3-mavzu. Atrof-muhit zararlanishining iqtisodiy baholanishi Tabiiy resurslarning iqtisodiy baholanishining maqsadi va vazifalari. Suv resurslarining iqtisodiy baholanishi va uning metodik asoslari. Mineral xom ashyolar va atmosfera havosining iqtisodiy baholanishi.</p> <p>4-mavzu. Tabiatni himoya qilishning iqtisodiy tahlili Atrof-muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi. Atrof-muhit holatini iqtisodiy tahlil qilish bo'yicha xalqaro tajriba. Qizil kitob.</p> <p>5-mavzu. “Yashil” iqtisodiyotni baholashning kompleks usuli. “Yashil” iqtisodiyotni baholashning kompleks usuli. Jahon banki yondashuvi. “Yashil” iqtisodiyotni baholashda xalqaro tashkilotlar yondashuvi: umumiy va farqli jihatlar. UNEP va “yashil” iqtisodiyotga o'tishni baholash.</p> <p>6-mavzu. “Yashil” iqtisodiyotga o'tish jarayonini baholashning IHHT yondashuvi. “Yashil” iqtisodiyotga o'tish jarayonini baholashning Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHHT) yondashuvi. GGGI va Dual Citizen xalqaro agentliklarining reyting usuli.</p> <p>7-mavzu. “Yashil” iqtisodiyotga o'tish jarayonini moliyalashtirish “Yashil moliyalashtirish” tushunchasi. “Yashil moliyalashtirish” tizimining tarkibi va amal qilish xususiyatlari. GEFF loyihasi. “Yashil loyihalar”ni investitsiyalash yo'nalishlari va dastaklari. Jahon moliya bozorida “yashil obligatsiyalar”ning o'rni.</p> <p>8-mavzu. “Yashil” iqtisodiyotda tiklanadigan energiya o'rni</p>
--

Tiklanadigan energiya manbalarining turlari va afzalliklari. "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishda tiklanadigan energiya manbalarining o'rni. Tiklanadigan energiya iste'molining holati, tarkibi va rivojlanish istiqbollari. Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirishni investitsiyalash xususiyatlari. O'zbekistonda tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish istiqbollari.

9-mavzu. "Yashil energetika"

Kioto protokoli mohiyati va ahamiyati. "Yashil energetika"ni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorij tajribasi. O'zbekistonda "yashil energetika"ni rivojlantirish istiqbollari. "Yashil energetika"ning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar.

10-mavzu. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)

Barqaror rivojlanish maqsadlarining mohiyati va ahamiyati. Barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy yo'nalishlari. Barqaror rivojlanish maqsadlarida energiyaning barqaror va zamonaviy manbalardan foydalanishni ta'minlash masalalari. O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish strategiyalari.

11-mavzu. Qishloq xo'jaligini "yashil" iqtisodiyot asosida barqaror rivojlantirish

Qishloq xo'jaligini "yashil" iqtisodiyot asosida rivojlantirishning zarurligi. Qishloq xo'jaligini "yashil" iqtisodiyot asosida rivojlantirish muammolari. Qishloq xo'jaligini "yashil" iqtisodiyot asosida rivojlantirish yo'nalishlari. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda "yashil" iqtisodiyotning tutgan o'rni.

12-mavzu. Organik qishloq xo'jaligi

Organik qishloq xo'jaligi tushunchasi, rivojlanish ko'rsatkichlari va usullari. Organik qishloq xo'jaligining afzalliklari. Organik qishloq xo'jaligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari. GMOga qarshi kurashish muammolari. O'zbekistonda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.

13-mavzu. Ekologik siyosat

Ekologik muammolarning mohiyati, oqibatlari va hal etish yo'llari. Ekologik siyosatning mohiyati, turlari va vazifalari. Ekologik siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi. O'zbekistonda ekologik vaziyat va ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlari. Yevropa darajasidagi ekologik siyosat.

14-mavzu. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning AQSH tajribasi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) mamlakatlariida "yashil o'sish"ni ta'minlash modellari. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning AQSH

tajribasi. Qo'shma Shtatlarning global issiqxona gazlari chiqindilaridagi roli. Uglerodsiz iqtisodiyotga o'tish yo'llari.

15-mavzu. Germaniyada "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish

Yelda "yashil o'sish"ni ta'minlash strategiyasining ustuvor yo'nalishlari. Germaniyada "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish xususiyatlari. Germaniya: Siyosat asoslari, strategiyalar va yashil o'tish uchun dasturlar. Germaniya Horizontda 2020. Kelajakdagi ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha hamkorlik yo'llari: Germaniya va Daniya.

16-mavzu. Koreya Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish

Koreya Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish omillari va rivojlanish istiqbollari. Yashil iqtisodiyot va yashil o'sish. Yashil o'sish ko'rsatkichlari doirasi. Koreyada GGI larning asoslari va ulardan foydalanish. Yashil turmush tarzi ko'rsatkichlari doirasi. SEEA-CF rivojlanish strategiyasi. Yashil sanoat va yashil mahsulotlar.

17-mavzu. Xitoy va Rossiya iqtisodiyotining "yashil" iqtisodiyotga o'tish tajribasi

Rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror rivojlanishni ta'minlash va "yashil" iqtisodiyotga o'tish muammolari. Rivojlanayotgan mamlakatlarda "yashil o'sish"ga o'tish modellari. MDH mamlakatlariida "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari. Xitoy iqtisodiyotining "yashil" iqtisodiyotga o'tish tajribasi. Rossiya iqtisodiyotining "yashil" iqtisodiyotga o'tish tajribasi.

18-mavzu. Qozog'iston va Belorussiya Respublikalarining "yashil" iqtisodiyotga o'tish tajribasi

Qozog'iston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish tajribasi. Belorussiya Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish tajribasi. Qozog'istonda yashil rivojlanish siyosatiga umumiy nuqtai-nazar. Qozog'iston Respublikasida yashil o'sish. Belorussiya Respublikasida yashil o'sish.

19-mavzu. O'zbekistonda iqlim o'zgarishining oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

O'zbekistonda iqlim o'zgarishi oqibatlarining namoyon bo'lishi va o'ziga xos jihatlari. Iqlim o'zgarishlari oqibatlariga moslashishning zamonaviy yechimlari. Mamlakatimizda mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning innovatsion usullari.

20-mavzu. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni shakllantirish tamoyillari va rivojlantirish mexanizmlari. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi: zaruriyati, maqsadi, tamoyillari va vazifalari. Mamlakatimiz iqtisodiyotining energiya samaradorligini oshirish yo'nalishlari. O'zbekistonda

“yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish. O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlari.

21-mavzu. Milliy “yashil taksonomiya”

O‘zbekistonda milliy “yashil taksonomiya” ishlab chiqish maqsadi va asosiy vazifalari. “Yashil taksonomiya” mezonlari.

22-mavzu. “Yashil” iqtisodiyot indeksi

Pandemiya keyin qanday qilib kuchliroq bo‘lish mumkin? Yashil rangni o‘lchash uchun inklyuziv asosni loyihalash - iqtisodiyot taraqqiyoti. Ko‘rsatkichlarni xaritlash va aniqlash. Indoneziya yashil iqtisodiyot indeksini qanday hisoblash mumkin? Indoneziya iqtisodiyoti qanchalik “yashil”?

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. “Yashil” iqtisodiyot faniga kirish
2. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish
3. Atrof-muhit zararlanishining iqtisodiy baholanishi
4. Tabiatni himoya qilishning iqtisodiy tahlili
5. “Yashil” iqtisodiyotni baholashning kompleks usuli.
6. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini baholashning IHTT yondashuvi.
7. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini moliyalashtirish
8. “Yashil” iqtisodiyotda tiklanadigan energiyaning o‘rni
9. “Yashil energetika”
10. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)
11. Qishloq xo‘jaligini “yashil” iqtisodiyot asosida barqaror rivojlantirish
12. Organik qishloq xo‘jaligi
13. Ekologik siyosat
14. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning AQSh tajribasi.
15. Germaniyada “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish
16. Koreya Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish
17. Xitoy iqtisodiyotining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish tajribasi
18. Rossiya iqtisodiyotining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish tajribasi
19. Qozog‘iston va Belorussiya Respublikalarining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish tajribasi
20. O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishining oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish
21. O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish
22. Milliy “yashil taksonomiya”
23. “Yashil” iqtisodiyot indeksi

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan

o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta‘lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. GGGI va Dual Citizen xalqaro agentliklarining reyting usuli.
2. GEFF loyihasi.
3. “Yashil loyihalar”ni investitsiyalash yo‘nalishlari va dastaklari.
4. Jahon moliya bozorida “yashil obligatsiyalar”ning o‘rni.
5. Tiklanadigan energiya iste‘molining holati, tarkibi va rivojlanish istiqbollari.
6. Tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirishni investitsiyalash xususiyatlari.
7. O‘zbekistonda tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirish istiqbollari.
8. “Yashil energetika”ni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning xorij tajribasi.
9. “Yashil energetika”ning rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi omillar.
10. Barqaror rivojlanish maqsadlarida energiyaning barqaror va zamonaviy manbalardan foydalanishni ta‘minlash masalalari.
11. O‘zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish strategiyalari.
12. Qishloq xo‘jaligini “yashil” iqtisodiyot asosida rivojlantirish muammolari.
13. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda “yashil” iqtisodiyotning tutgan o‘rni.
14. Organik qishloq xo‘jaligining afzalliklari.
15. Organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari.
16. GMOga qarshi kurashish muammolari.
17. O‘zbekistonda organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.
18. Ekologik siyosatning mohiyati, turlari va vazifalari.
19. Ekologik siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi.
20. O‘zbekistonda ekologik vaziyat va ekologik siyosatning ustuvor yo‘nalishlari.
21. Yevropa darajasidagi ekologik siyosat.
22. Yelda “yashil o‘tish”ni ta‘minlash strategiyasi
23. Germaniyada “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish xususiyatlari.
24. Koreya Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish omillari va rivojlanish istiqbollari.
25. Rivojlanayotgan mamlakatlarda “yashil o‘tish”ga o‘tish modellari.
26. MDH mamlakatlarida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari.

27. Qozog'iston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish tajribasi. Belorussiya Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish tajribasi.
28. Iqlim o'zgarishlari oqibatlariga mustashishning zamonaviy yechimlari.
29. Mamlakatimizda mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning innovatsion usullari.
30. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi
31. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.
32. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlari.
33. "Yashil taksonomiya" mezonlari.
34. Indoneziya yashil iqtisodiyot indeksi
35. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning mohiyati va uni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot" ning o'rni.
36. Iqtisodiy rivojlanishning atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'siri.
37. Global isish, uni keltirib chiqarayotgan omillar.
38. "Yashil iqtisodiyot" ga o'tishning zaruriyati.
39. "Yashil iqtisodiyot" ga o'tish tamoyillari.
40. "Yashil iqtisodiyot" ga o'tish siyosatida qo'llaniladigan dastaklar.
41. "Yashil iqtisodiyot" ning axborot resurslari.
42. "Yashil" ish o'rinlarini yaratish yo'llari.
43. "Yashil" ish o'rinlari va ta'lim o'rtaqidagi bog'liqliklar.
44. "Yashil iqtisodiyot" va "yashil o'sish" ni baholash zarurati
45. "Yashil iqtisodiyot" ni tavsiflovchi ko'rsatkichlar mohiyati.
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsifiya etiladi.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

1. Talaba global iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish muammolari, havo va suvning ifloslanishi, qurg'oqchilik va yer resurslaridan nooqilona foydalanish, ekologik adolat va muvozanatning buzilishi, o'rmonlar, qishloq xo'jaligi, baliqchilik va chorvachilik tizimidagi muammolar, tashqi va ichki tasir etuvchi omillar, ekotizm resurslaridan foydalanish, ekotizimni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, ekologiyani muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish, foyda va xarajatlarni tahlil qilish to'g'risidagi qoidalar haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;
2. Talaba yashil iqtisodiyot va unga nazariy modellarni iqtisodiy hodisalarga nisbatan mustaqil qo'llay olish, holatni tahlil va prognoz qilish bo'yicha *ko'nikmalarga ega bo'lishi*;

3. Talaba tabiiy resurslardan foydalanishning asosiy kamchiliklarini (tashqi va ichki ta'sirlar), ekologiyani muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning atrof-muhit hamda tabiiy resurslarga ta'sirini bilish va baholay olish, ekologiyani muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha qarama-qarshiliklar hamda rag'batlantirish muammolarini hal qilishda o'zaro hamkorlik va uyg'unlikni ta'minlash uchun asosiy strategik tamoyillardan foydalanish to'g'risida *aniq matakalgarga ega bo'lishi kerak*.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
- blis-so'rov;
- jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyiha ishi bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni yechish.

5. VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ismi bajarish hamda talaba mustaqil ta'limi topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etib borishi lozim.

6. Asosiy adabiyotlar

1. Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik. - T.: "Ma'rifaf", 2024. 224 bet. (Ushbu kitobning PDF shakli ARMda mavjud)
 2. M.T.Asqarova, J.J.Jamolov, X.S.Xadjayev. Yashil iqtisodiyot. Darslik. — T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022. - 312 b. (Ushbu kitobning PDF shakli ARMda mavjud)
 3. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Toshmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik. - T.: "Universitet", 2020. - 296 bet. (Ushbu kitobning PDF shakli ARMda mavjud)
- Qo'shimcha adabiyotlar**
1. Н.Х.Хакимов, О.М.Ахмедов, А.А.Абдумаликов, З.Б.Шарипова. Яшил иктисодиёт ва экология. Дарслик. - Т.: "Adast poligraf" nashriёti, 2021. -264 б. (Ushbu kitobning PDF shakli ARMda mavjud)

<p>2. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Тошмагов Ш.А. Жаҳонда “яшил иқтисодиёт”ни ривожлантириш моделлари ва уни Ўзбекистонда амалга ошириш хусусиятлари: монография. – Т.: “Университет”, 2020. – 278 б. (Ushbu kitobning PDF shakli ARMda mavjud)</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. 2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 3. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi) 4. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi) 5. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi) 6. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi) 7. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi) 8. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi) 	<p>7. Mazkur o'quv dasturi universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil “12” - iyundagi “11” - sonli yig'ilish Qarori bilan tasdiqlangan.</p>	<p>8. Fan/modul uchun mas'ullar: O. A. Abdug'aniyev TerDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.d., professor B.E. Turayev TerDU, “Iqtisodiyot” kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori. A.B. Ahmedov TerDU, “Iqtisodiyot” kafedrasini katta o'qituvchisi. A.G. Xayitmuradov TerDU, “Iqtisodiyot” kafedrasini o'qituvchisi.</p>	<p>9. Taqrizchilar: A.E. Absamatov – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasini o'qituvchisi, i.f.n. N.N. Norqobilov – TerDU, “Iqtisodiyot” kafedrasini katta o'qituvchisi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori.</p>
---	--	--	---